O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar 82
D.A.Djurakulova
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar 87
A.R.Dilbarjonov
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli 92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari 95
M.Sh.Dehqonova
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish 99
B.Q.Qurbonova
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari 102
M.I.Madraximova
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish 106
Z.Q.Abdullayeva
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi 110
О.А.Васильченко
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении 114
S.R. Shermatova
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari 120
M.Nasritdinova
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish 124
D.Sh.Jo'raboyeva
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar 129
U.I.Obidjanov
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari 134
J.M.Otajonov
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества 139
M.A.Nurmatova
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari 146
S.B.Tangirqulov
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari 151
Z.N.Asqarova
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish 156
N.Sh.Rustamova
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich) 160

PEDAGOGIKA

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a36

UO'K: 378.147:004

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING AKT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ИКТ-КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

DEVELOPING ICT COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS THROUGH AN INTEGRATIVE APPROACH

Asqarova Zilolaxon Nurmuhammadovna
Farg'ona viloyati Pedagogik Mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy jihatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotda kompetentlikka asoslangan yondashuvning tarixiy rivojlanish bosqichlari, AKT kompetensiyasining tarkibiy qismlari va uni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini integrativ yo'nalishda shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена теоретическим аспектам развития ИКТ-компетентности будущих учителей на основе интегративного подхода. В исследовании проанализированы этапы исторического развития компетентностного подхода, структурные компоненты ИКТ-компетентности и педагогические возможности её формирования. В статье разработана теоретическая модель формирования ИКТ-компетентности будущих учителей в интегративном направлении, на основе которой показаны возможности повышения эффективности их профессиональной подготовки.

Abstract

This article is devoted to the theoretical aspects of developing the ICT competence of future teachers based on an integrative approach. The study analyzes the historical stages of the competence-based approach, the structural components of ICT competence, and the pedagogical opportunities for its development. The article presents a theoretical model for forming future teachers' ICT competence in an integrative direction, demonstrating the possibilities of increasing the effectiveness of their professional training.

Kalit so'zlar: *Integrativ yondashuv, AKT kompetensiyasi, bo'lajak o'qituvchilar, kompetentlikka asoslangan yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik model.*

Ключевые слова: *интегративный подход, ИКТ-компетентность, будущие учителя, компетентностный подход, профессиональная подготовка, педагогическая модель.*

Key words: *integrative approach, ICT competence, future teachers, competence-based approach, professional training, pedagogical model.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimi tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali amalga oshirilmoqda. 2017-yildan boshlab, Bolon deklaratsiyasi va Yevropa ta'lim tizimi talablarini hisobga olgan holda, O'zbekistonning yangi ta'lim standartlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshiradigan, mas'uliyatli va doimiy rivojlanishga intiladigan kompetent shaxslarni tayyorlashdir. Oliy ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish va ta'lim natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv bilim berish bilan birga talabalarda kasbiy ko'nikmalar, ijodiy va tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishni ko'zlaydi. Ushbu tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetentlikka asoslangan yondashuvning shakllanishi uch bosqichda ro'y bergan. Birinchi bosqichda (1960–1970-yillar) N.Xomskiy (1965) «kompetensiya» tushunchasini kiritdi, til kompetensiyasi va kommunikativ kompetensiya (D.Xayms) tushunchalari shakllandi, R.Uayt (1959) esa kompetentlikni ichki motivatsiya majmuasi sifatida ta'rifladi. Ikkinchi bosqichda (1970–1990-yillar) Djon Raven kompetentlikni «ijtimoiy ahamiyatga ega hayotiy muvaffaqiyat» deb izohladi, 39 turdagi kompetentlikni «motivatsiyalangan qobiliyatlar» sifatida tasnifladi. A.V.Xutorskoy kompetensiyalarni kalit, umumfanlararo va fanga oid turlarga ajratib, o'nga yaqin kalit kompetensiyalarni (qadriyatlar, axborot bilan ishlash, muloqot va boshqalar) belgiladi. A.K.Markova, E.F.Zeer va V.N.Vvedenskiy kabi olimlar malakaviy kompetentlik turlarini (maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, kommunikativ) tasnifladilar. AKT-kompetentlik A.A.Kuznesov, I.V.Robert va S.A.Zayseva ishlarida texnik bilim va ko'nikmalarni ta'limda qo'llash sifatida ta'riflanadi. Ushbu tahlil AKT-kompetentligini kasbiy kompetentlikning muhim qismi sifatida ko'rsatadi, ammo boshlang'ich ta'limdagi o'ziga xosligi yetarlicha o'rganilmagan.

METODLAR

Tadqiqotda kompetentlikka asoslangan yondashuvni o'rganish uchun nazariy va tahliliy metodlar qo'llanildi. Adabiyotlar tahlili xalqaro va mahalliy olimlarning (N.Xomskiy, R.Uayt, Djon Raven, A.V.Xutorskoy, A.K.Markova, E.F.Zeer, V.A.Slastyonin, I.V.Robert va boshqalar) ishlariga asoslandi. Ularning kompetensiya va AKT-kompetentlik haqidagi ta'riflari, komponentlari va tasniflari tizimli ravishda taqqoslandi. Tadqiqot jarayonida kompetentlikning tarixiy bosqichlari (1960–1970-yillar va 1970–1990-yillar) sintez qilindi, kompetentlik turlari (maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, funksional) tahlil qilindi.

Malakaviy kompetentlik turlarini taqqoslash uchun A.K.Markova (maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, individual), V.Yu.Krichevskiy (funksional, intellektual, situatsion, ijtimoiy), E.F.Zeer (ijtimoiy-huquqiy, maxsus, shaxsiy, autokompetentlik) va V.N.Vvedenskiy (kommunikativ, axborot, regulyativ, intellektual-pedagogik)larning tadqiqotlari bo'yicha komponentlar o'rganildi. Ular kompetentlik tuzilmasidagi farqlarni aniqlashga yordam berdi.

AKT-kompetentligining tarkibiy qismlari (axborot va kommunikativ kompetentlik) nazariy sintez orqali aniqlangan. A.V.Xutorskoy, I.V.Robert va S.A.Zayseva ishlariga asoslanib, AKT-kompetentlik umumiy foydalanuvchi, umumpedagogik va fan-pedagogik ko'rinishlarda ta'riflandi. Adabiyotlarda AKT-kompetentlik axborotni qidirish, tahlil qilish, qayta ishlash va ta'limda qo'llash qobiliyati sifatida tasvirlanadi.

Pedagogik faoliyatdagi AKTdan foydalanish shakllari (metodik birlashmalar, seminarlar, virtual hamkorlik, tadqiqot faoliyati) tahlil qilindi. Virtual hamkorlik masofaviy olimpiadalar, viktorinalar va tarmoq loyihalari orqali o'quvchilarni jalb etish sifatida belgilandi. Bu shakllar AKT-kompetentligini rivojlantirishning samarali usullari sifatida ko'rildi.

Malaka oshirish kurslari va axborot-ta'lim muhitining (ATM) roli tadqiqotda alohida ko'rib chiqildi. ATM o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va talabalar o'rtasidagi tarmoq tuzilmalariga asoslanadi. Malaka oshirish kurslari epizodik bo'lsa-da, AKT-kompetentligini oshirishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqotda integrativ yondashuv asosida AKT-kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Bu model oliy ta'limda nazariy va amaliy tayyorgarlikni, maktabda virtual hamkorlikni va malaka oshirishda doimiy o'qitishni o'z ichiga oladi. Ushbu metodlar bo'lajak o'qituvchilarning kreativ AKT-kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirildi.

NATIJALAR

Tadqiqot kompetentlikka asoslangan yondashuvning ta'limda nazariy bilimlar bilan birga kasbiy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishni shakllantirishga yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Kompetentlikning tarkibiy qismlari hodisalar tahlili, tajribaga asoslanish, faollik, o'rganish va yangiliklarni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Malakaviy kompetentlik turlari 1.1-jadvalda tasniflandi: A.K.Markova bo'yicha maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual kompetentlik; V.Yu.Krichevskiy bo'yicha funksional, intellektual, situatsion va ijtimoiy; E.F.Zeer bo'yicha ijtimoiy-huquqiy, maxsus, shaxsiy va autokompetentlik; V.N.Vvedenskiy bo'yicha kommunikativ, axborot, regulyativ va intellektual-pedagogik kompetentlik.

AKT-kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari axborot va kommunikativ kompetentlik sifatida aniqlandi. Axborot kompetentligi axborotni qidirish, tahlil qilish, qayta ishlash va saqlash

qobiliyatini, kommunikativ kompetentlik esa muloqot va hamkorlikni tashkil etishni ifodalaydi. Kasbiy standart bo'yicha AKT-kompetentlik uch ko'rinishda taqdim etildi: umumiy foydalanuvchi (texnik muammolarni bartaraf etish, internetda qidirish), umumpedagogik (ta'lim jarayonini tashkil etish, elektron portfolio) va fan-pedagogik (virtual tajriba, raqamli vizual texnologiyalar).

AKT-kompetentligiga erishish omillari sifatida davlat ta'lim standartlari, texnologik baza (keng yo'lli internet, kompyuterlar), axborot-ta'lim muhiti (ATM) va malaka oshirish kurslari aniqlandi. ATM o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va talabalar o'rtasidagi tarmoq tuzilmalariga asoslanadi, bu esa AKT-kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Virtual hamkorlik (masofaviy olimpiadalar, viktorinalar, tarmoq loyihalari) AKT-kompetentligini oshirishning samarali shakli sifatida aniqlandi. Bu shakl o'qituvchilarni o'quvchilarni faol jalb etishga undaydi va ta'lim jarayonini joy va vaqtga bog'liqsiz tashkil etish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining AKT-kompetentligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida professional faoliyatni amalga oshirish, o'quvchilarda AKT-savodxonlikni shakllantirish va yangi texnologiyalarni maktab amaliyotiga joriy qilish qobiliyati sifatida ta'riflandi. Bu ta'rif ta'limning dinamik rivojlanishiga mos keladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv oliy ta'limda nazariy tayyorgarlik, maktabda amaliy faoliyat va malaka oshirishda doimiy o'qitish orqali AKT-kompetentligini samarali rivojlantiradi. Bu model bo'lajak o'qituvchilarning kreativ yondashuvini va zamonaviy ta'lim talablariga moslashishini ta'minlaydi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar va global standartlarga moslashish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Kompetentlikning tarixiy bosqichlari va komponentlari (nazariy, amaliy, shaxsiy) olimlar ishlarida batafsil o'rganilgan, ammo AKT-kompetentligining dinamik tabiati yangi usullar talab qiladi. A.V.Xutorskoy, A.K.Markova, I.V.Robert va boshqa olimlarning ta'riflari AKT-kompetentligini kasbiy kompetentlikning muhim qismi sifatida ko'rsatadi, lekin boshlang'ich ta'limdagi o'ziga xosligi yetarlicha e'tiborga olinmagan.

Kasbiy standart bo'yicha AKT-kompetentligining uchta ko'rinishi (umumiy foydalanuvchi, umumpedagogik, fan-pedagogik) ta'lim samaradorligini oshiradi, ammo texnologik baza va malaka oshirishning epizodikligi kabi kamchiliklar mavjud. Virtual hamkorlik va innovatsion faoliyat AKT-kompetentligini rivojlantirishning samarali usullari sifatida aniqlandi, chunki ular o'quvchilarni faol jalb etish va ta'lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari AKT-kompetentligining ta'limning barcha ishtirokchilari (o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, talabalar) uchun muhimligini tasdiqladi. Axborot-ta'lim muhiti (ATM) va malaka oshirish kurslari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, ammo kurslarning qisqa muddatli va epizodik xarakteri cheklovlar yaratadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun doimiy tyutorlik va masofaviy hamkorlik shakllari taklif etiladi.

AKT-kompetentligining boshlang'ich ta'limdagi o'ziga xosligi o'quvchilarda AKT-savodxonlikni erta shakllantirish bilan bog'liq. Bu o'qituvchidan yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish va maktab amaliyotiga joriy qilishni talab qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv ushbu talablarni qondirishga yordam beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu modelning empirik samaradorligini baholashga yo'naltirilishi kerak, chunki hozirgi ish asosan nazariy tahlilga asoslangan. Texnologik resurslarning yetishmasligi va malaka oshirishning qisqa muddatli tabiati kabi cheklovlar kelajakda ko'proq e'tibor talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, AKT-kompetentligini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kreativ yondashuvini va zamonaviy ta'lim talablariga moslashuvini ta'minlaydi. Bu model ta'lim tizimining global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan samarali yo'naltirildir. Kompetentlikka asoslangan yondashuvning tarixiy tahlili uning ta'lim jarayonidagi o'zgarish va rivojlanish dinamikasini anglash imkonini berdi. AKT kompetensiyasining tarkibiy

qismlari — axborot va kommunikativ kompetensiyalarning o'zaro bog'likligi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida alohida ahamiyatga ega. Ishlab chiqilgan integrativ model bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat texnik ko'nikmalarini, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini xam rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilish joizki, integrativ yondashuv asosidagi AKT kompetensiyasini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning ijodiy potensialini namoyish eta olishi va zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Kelajakdagi tadqiqotlar ishlab chiqilgan modelning amaliy tatbiqi va uning samaradorligini tajribaviy tekshirishga yo'naltirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дж.Равен. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализатsiя: пер. с англ. -Москва: Когито-Центр, 2002. — 395 с.
2. Е.К.Хеннер. Формирование ИКТ — компетентности учащихся и преподавателей в системе непрерывного образования. — М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2008. — 188 с.
3. А.В.Хуторской. Дидактика. Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. — СПб.: Питер, 2017. — 720 с.
4. Ю.В.Косякин. Теория и практика повышения эффективности педагогической деятельности (для начинающих преподавателей высшей школы): учеб. пособие. — М.: МГИУ, 2009. — 323 с.
5. И.А.Колесникова, Е.В.Титова. Педагогическая праксеология: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. — М.: Академия, 2005. — 256 с.
6. О.Б.Епишева. О понятии "Технологическая компетентность педагога". Проблемы педагогической инноватики. Компетентностный подход: Материалы регион, научно-пр. конф. Тобольск: ТГПИ, 2003.- С. 41-43.
7. Л.В.Львов. Проектирование системы профессиональной подготовки на полипарадигмальной основе. — М.: СГУ. — 2013. — 512 с.
8. Е.А.Косорукова, Формирование информатsionной компетенции студентов средствами контекстно-проектной технологии: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. — Калуга, 2014. — 225 с.
9. Ю.В.Ефимова. Формирование информатsionно-коммуникатsionной компетентности студентов вуза в контексте модернизатsii высшей школы. Современные проблемы науки и образования. 2012. — № 6.
10. О.А.Козлов. Формирование ИКТ — компетентности управленческих и педагогических кадров в условиях сетевого взаимодействия. Вестник Мининского университета.- 2016.- № 2 (15). — С. 6.
11. Z.N.Askarova. The development of future teachers' ICT competencies in managing project activities and in the process of mutual collaboration. Web of Technology: Multidimensional Research Journal. Volume 2, Issue 12, December 2024. 174-178 pp.
12. Z.N.Askarova. Uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKT kompetentligini shakllantirish. Maktabgacha va maktab ta'limi Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal. 2025-yil, yanvar, №1-son. 553-556 b.
13. Z.N.Askarova. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik modellar va texnologiyalarni joriy etish. Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2024-yil, 7-tom 11-son. –B.334-341.
14. Z.N.Askarova. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ pedagogik yondashuvlar asosida AKT vositalaridan samarali foydalanishga tayyorlash. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2024. 34-son. –B. 437-440.